

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetining barcha Qizlari diqqatiga!

Bizning eng go'zal, aqlli va baxtli qizlarimiz!

Barchangizni **11-oktabr – Xalqaro Qizlar Kuni** bilan samimiy muborakbod etamiz!

Xalqaro Qizlar Kuni barchamizni birlashtirib, qizlarning ta'lim olishlari va ishga joylashish ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun eng muhim ehtiyoj va imkoniyatlariga e'tiborni qaratadi.

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti oliy o'quv yurti sifatida avtomobilsozlik va mashinasozlik, sanoatda qurilish va fuqarolik muhandisligi, axborot texnologiyalari, dasturlash va sanoat menejmenti sohalarida yuqori malakali ayol mutaxassislarni tayyorlashga o'z hissasini qo'shadi va **barchangizni “Men va oltin kuz” mavzusidagi videoklipni tayyorlashda ishtirok etishga chaqiradi!** 📷📷📷

Sizlardan qiziqarli va o'ziga xos, o'zingiz yoki dugonalariniz bilan kuzning go'zal manzaralarida tushgan fotosuratlarinizni telegramdagi @Farizaxon nomli sahifamizga yuborishingizni kutib qolamiz 📷!!!

Keling, ushbu sanani birgalikda nishonlashga o'z hissamizni qo'shaylik!

Qizlar Baxtli Bo'lish va har doim Baxtli Yashash uchun yaratilganlar!